



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

## ONA TILI FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Nuriddinova Yulduzxon Xasanboyevna

*Quva tuman kasb-hunar maktabi ona tili  
va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar o'quv moduli malaka oshirish jarayonida fan o'qituvchilarini sohadagi yangiliklar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, yangi metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Kalit so'z va iboralar:** zamonaviy yondashuvlar, innovatsiyalar o'quv moduli, sohadagi yangiliklar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, yangi metodik qo'llanma va tavsiyalar.

Barchaga ayonki, mamlakatimizda ta'lif tizimini isloh qilish orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish bosh vazifa sifatida qo'yilmoqda. Ta'lifning maqsadi, eng avvalo, inson ongini rivojlantirishdir. Chunki har qanday mamlakatning kelajagi, ertangi kuni uning tabiiy boyliklariga emas, balki fuqarolarining saviyasiga bog'liqdir. Shu boisdan, barcha fanlar shu qatori ona tili fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar o'quv modulining ishchi o'quv dasturi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, fanni o'qitishning zamonaviy usul va metodlari bilan tanishtiradi.

O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili bo'lib, uning umumiyligi o'rta ta'lif maktablarda o'qitilishi davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko'ra to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil Respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi o'ta muhim vazifa bo'lib turgan bir sharoitda mazkur fanning o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishning bosh omiliga aylantirildi. O'rta umumiyligi ta'lif maktablarida ona tili o'qitishning mavjud ahvoli ta'lif mazmunini yangilashni hayotiy zaruriyat qilib qo'ydi. Biz quyidagi holatlarda ona tili fanining o'qitish usullari va metodlari bilan tanishib chiqamiz.

Binar ma'ruba . Binar so'zi lotinchadan olingan bo'lib, qo'sh, ikki degan ma'noda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotning olib borilishi ikki vakil: oqituvchi va



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

metodist; o‘qituvchi va o‘quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o‘qituvchi; o‘qituvchi va tyutor (maslahatchi) o‘rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi. Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad yangi o‘quv ma’lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki ishtirokchi nuqtayi nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat.

Trening. Trening zamonaviy ta’lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg‘ulotlarni amalga oshirishning oziga xos ko‘rinishidir. Treninglar o‘rganilishi lozim bo‘lgan nazariy g‘oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o‘zlashtirish imkoniyatini beradi va ta’lim oluvchilarda shaxslararo o‘zaro hamkorlikning samarali ko‘nikmasini shakllantirishga, shuningdek, mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiylarini oshirishga yo‘naltiriladi.

Tushuntirish namoyish etish usuli. O‘qituvchi tomonidan bilimlar tayyor holda beriladi. Ona tilining qonun-qoidalari o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi va uni mustahkamlash maqsadida misollar keltiriladi. O‘quvchilar bayon qilinayotgan bilimlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga harakat qiladilar.

Muammoli bayon qilish usuli. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga ma’lum bir muammo qo‘yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minalash orqali bu muammoni hal qilishga kirishadi. Ta’limning metodi o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining o‘qituvchi rahbarligida mustaqil tahlil etilishi, kuzatilishi, guruhlanishi, umumlashtirilishi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqoridaqgi usullarning tasnifining ustunligi shundaki, o‘quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich faollashtirish nazardautilgan hamda unda o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘quv faoliyati tarkibida tadqiqotchilik unsurlari bo‘lishi zarurligiga e’tibor berilgan. Yuqorida berilgan tasniflar ta’limning umumiylarini qonuniyatlaridan kelib chiqib, barcha fanlarni o‘qitishga bevosita aloqador usullar sanaladi.



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:5

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaxo'jayev A. Istiqlol va ona tilimiz. Toshkent, «Sharq», 1998.
2. Ona tili-davlat tili (Tuzuvchilar: N. Jumaxo'ja, R. Jomonov). Toshkent, «Adolat», 2004, 79.b
3. Uzluksiz ta'lif bo'g'lnlari uchun ona tilidan muqobil dasturlar. Toshkent, «O'qituvchi», 1994, 246.b
4. O'zbek maktablarida ona tili konsepsiysi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. 1994. 1-2- sonlari.
5. Qosimova N. Ona tili ta'limi va yangi pedagogik texnologiyalar. Buxoro, 2009, 103.
6. Kadamzhanovna, A.N.(2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY" MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67
7. Z Madraximova,Z & Ablaeva, N.(2022).CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS" HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845 2022
8. Madraximova,Z & Ablaeva, N. (2022)ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА" ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ".Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022
9. Аблаева, Н.К.(2022).Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Ta'lif fidoyilari 6 (7), 687-691
10. Nasirov, A. N. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.